



JISMONIY SHAXSLARGA "MUDDATLI TO'LOV" SHAKLIDAGI QARZ
AJRATISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yil 24 dekabrda N°89 sonli litsenziyasi asosida faoliyat yurituvchi "Smart Bank" Aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) bir tomondan va ushbu oferta shartlarini qabul qiluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi (keyingi o'rinda "Qarz oluvchi" deb yuritiladi) boshqa tomondan, ushbu ommaviy taklif shartnomasini quyidagi maqsadda tuzadilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq tovarlar uchun haq to'lash maqsadida Qarz oluvchiga internet-platformasi (maxsus veb-sahifa) yoki mobil ilova orqali onlayn Qarz (keyingi o'rinlarda "Qarz" deb yuritiladi) ajratadi. Qarz oluvchi shartnomada belgilangan muddatlarda va shartlarda Qarz summasini to'liq to'laydi.

1.2. Qarz limiti internet-platformasi (maxsus veb-sahifa) yoki mobil ilova orqali avtomatik tarzda mijozning qarz yukidan kelib chiqib skoring asosida aniqlanadi va 50 000 000 (ellik million) so'mdan oshmagan miqdorda bo'ladi.

1.3. Qarz muddati: Qarz 1 (bir) yil muddatga to'liq to'lash sharti bilan ajratiladi.

1.4. Qarzdin foydalanganlik uchun foiz hisoblanmaydi.

1.5. Ajratilgan Qarzning oylik to'lovi to'lov jadvaliga muvofiq har oyning 5-sanasida amalga oshiriladi.

2. SHARTNOMANI QABUL QILISH

2.1. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 - moddasi va 369 - moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy taklif (oferta) shartnomasi hisoblanadi.

2.2. Mijoz www.smartbank.uz internet saytiga tashrif buyurib, tizim xizmatlaridan foydalanishga ruxsat berilganidan so'ng, shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq qabul qilingan hisoblanadi va mijoz Qarz oluvchi hamda to'lovchi sifatida ishtirok etadi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI:

3.1.1. Bank tomonidan jismoniy shaxslarga «onlayn Qarz» ajratish talablari bilan tanishish;

3.1.2. Huquq va majburiyatlar, shuningdek, Qarz ajratish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida to'liq va ishonchli ma'lumot olish;

3.1.3. Shartnomada nazarda tutilgan tartib va muddatlarda ajratilgan Qarz shartlarini bajarilishini talab qilish;

3.1.4. Qarzni muddatidan oldin qaytarish;

3.1.5. Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab bir oy muddatida Qarz mablag'idan foydalanilmagan taqdirda, shartnomani bir tomonlama muddatidan avval bekor qilish;

3.1.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni qoplashni qonunda o'rnatilgan tartibda bankdan talab qilish.

3.2. QARZ OLUVCHINING MAJBURIYATLARI:

3.2.1. Qarz olish va undan foydalanish uchun zarur hujjatlarni bankka taqdim etish;

3.2.2. Qarzdagi amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu shartnoma va/yoki Bank xamda mijoz o'rtasidagi boshqa kelishuvlarda ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish;

3.2.3. Qarzni shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda qaytarish;

3.2.4. Agar Qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikni mavjud bo'lsa, bank tomonidan yozma, SMS yoki boshqa ko'rinishda xabar olgan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida to'lovni amalga oshirish;

3.2.5. To'lov o'z vaqtida amalga oshirilmagan yoki to'liq to'lanmagan hollarda, ish haqi, boshqa plastik kartalar, omonat yoki omonatdagi mablag'lar, shuningdek, boshqa bankdagi hisobvaraqlardan to'lovlarni to'g'ridan to'g'ri undirilishiga to'sqinlik qilmaslik;

3.2.6. O'z hatti-harakatlari orqali Bankka yetkazilgan moddiy va ma'naviy ziyonlarni to'liq qoplab berish;

3.2.7. Qarz oluvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

3.3. BANK HUGUQLARI:

3.3.1. Asosli holatlarda Qarz ajratishdan bosh tortish;

3.3.2. Qarz oluvchidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish va monitoring qilish uchun kerakli bo'lgan hujjatlarni talab qilish;

3.3.3. Qarzni qaytarish 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq muddatga kechiktirilgan taqdirda, Qarz miqdorini belgilangan sud tartibida muddatidan oldin undirish;

3.4. BANK MAJBURIYATLARI:

3.4.1. Qarz oluvchiga uning huquq va majburiyatlari, shuningdek, Qarz ajratish bilan bog'liq barcha harajatlar to'g'risida ma'lumot taqdim qilish;

3.4.2. Qarz oluvchilar Qarz ajratish tartibi bilan tanishib chiqishlari maqsadida bankning internet-platformasi (maxsus veb-sahifa) yoki mobil ilovasida joylashtirish;

3.4.3. Qarz oluvchiga shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida vujudga kelgan zararni bankning aybi sud tartibida tasdiqlangan taqdirda qoplab berish;

3.4.4. Bank qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

4. "MUDDATLI TO'LOV" SHAKLIDAGI QARZ AJRATISH TARTIBI

4.1. Qarzni hisobga olish uchun Bank Qarz oluvchiga onlayn tartibda tegishli hisob raqamlarini ochadi.

4.2. Mazkur shartnoma Qarz oluvchi tomonidan qabul qilinganidan so'ng, Bank uning arizasida ko'rsatilgan Qarz miqdorini ajratadi.

4.3. Qarz to'lovi muddati kelganda qarz oluvchining biriktirilgan plastik kartasidagi yoki boshqa maxsus (masofadan turib boshqariladigan) hisobvarag'idagi mablag' avtomatik tarzda ushbu to'lovni undirish uchun yo'naltiriladi.

4.4. Qarz muddati tugaganidan so'ng, agar qarzdorlik mavjud bo'lsa, Bank qarz oluvchining plastik kartasidagi mavjud mablag'ni yoki boshqa maxsus (masofadan turib boshqariladigan) hisobvarag'idagi mablag'lar harakatini to'xtatib turish orqali ushbu qarzdorlikni qoplash uchun yo'naltiriladi.

4.5. Qarz oluvchining plastik kartasiga yoki maxsus hisob raqamiga mablag'lar Qarz limiti ochilgandan so'ng 2 (ikki) oy mobaynida kelib tushmagan taqdirda, Qarzning qolgan qismidan foydalanish avtomatik tarzda bank tomonidan Qarz oluvchining roziligisiz to'xtatiladi.

4.6. Agar Qarz oluvchi ajratilgan Qarz mablag'larini amaldagi qonunchilikka zid bo'lgan maqsadlarga ishlatilgan taqdirda, Bank barcha Qarz miqdorini muddatidan oldin undirish huquqiga ega.

4.7. Agar Qarz oluvchining muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lsa, Bank Qarz oluvchining mavjud hisob raqamlaridagi mablag'larni uning roziligisiz memorial order orqali undirib oladi.

5. MAXSUS SHARTLAR

5.1. Huquqni muhofaza qilish organlari, inkassatorlar va davlat ijro organlari Qarz oluvchiga tegishli mablag'larni yoki mol-mulkini undirish to'g'risidagi qarorlarni ijro etishda, ijroni Qarz oluvchining Bankdan olgan qarzi hisobidan undirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bank bunday da'volarni/qarorlarni ijro etmaydi.

5.2. Bank Qarz oluvchini va u tomondan ushbu Qarz orqali amalga oshirgan amaliyotlari haqidagi ma'lumotlarni maxfiylikni kafolatlaydi va uni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydi. Bunday ma'lumotlar amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda oshkor qilinishi va taqdim etilishi mumkin.

5.3. Bank tovarlar bilan bog'liq masalalar uchun (sifat, narx, yetkazib berish va boshqalar) javobgar emas va ular bilan bog'liq nizolarga aralashmaydi.

5.4. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda, qarz miqdorini undirish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq uning mol-mulkiga qaratilishi hamda uning merosxo'rlari ustidan sudga da'vo qilishi mumkin.

5.5. Qarz oluvchi o'z shaxsiy ma'lumotlarini kredit tarixini tekshiruvchi tashkilotlarga taqdim etilishiga rozilik bildiradi.

5.6. Har qanday sud ishida ushbu shartnoma bajarilishi bo'yicha Bank tomonidan taqdim etilgan hujjat birlamchi dalil hisoblanadi. Ushbu shartnoma Qarz summasi Bankka tegishli va uning to'lanishi lozim ekanligini tasdiqlaydi.

6. SHARTNOMA MUDDATI

6.1. Ushbu Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan o'rnatilgan tartibda qabul qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Ushbu Shartnoma Qarz muddati davomida amal qiladi, barcha majburiyatlar to'liq bajarilgan taqdirda bekor qilinadi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini oldindan ko'ra olmagan va oqilona choralalar bilan to'sqinlik qila olmagan favqulodda holatlar natijasida, jumladan suv toshqini, yong'in, zilzila, fuqarolar tartibsizliklari, bosqinchilik, harbiy harakatlar yoki boshqa tabiiy ofatlar sababli bajara olmasa, javobgar bo'lmaydilar. Shuningdek, Shartnoma muddati javobgarlik choralarini qo'llamasdan holatning davomiyligi bo'yicha kechiktiriladi.

8. ANTIKORRUPSION NORMALAR

8.1. Shartnoma shartlarini bajarishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir qonunchiligiga, bankning "Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati"ga hamda ichki idoraviy hujjatlariga amal qilishi lozim.

8.2. Korrupsion xavflarni yuzaga keltiradigan va manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan barcha holatlar yuzasidan bankning Komplayens va ichki nazorat departamentiga murojaat qilinishi lozim.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.2. Qarz to'lovi o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmagan Qarz summasining 0.5% miqdorida, lekin ajratilgan Qarz summasining 30% ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solishga haqli. Bank to'langan jarima mablag'larini faqatgina xayriya maqsadlariga yo'naltiradi.

9.3. Mazkur Shartnoma bo'yicha vujudga kelgan har qanday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli sud tartibida ko'rib chiqiladi.

9.4. Ushbu Shartnoma qabul qilingandan so'ng qonuniy kuchga ega bo'ladi, shuningdek, Qarz oluvchi tomonidan o'z qo'li bilan imzolasa yoki elektron imzosi bilan tasdiqlasa ham teng yuridik kuchga ega hisoblanadi.